


III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI


Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, viloyatda 2023 yil yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)larining umumiy hajmi 3 766,5 mlrd.so‘mni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan 103,1 foizni, shu jumladan yalpi dehqonchilik mahsulotlari hajmi 261,3 mlrd.so‘mni (89,1 foiz), yalpi chorvachilik mahsulotlari hajmi 3 372,1 mlrd.so‘mni (104,0 foiz), qishloq xo‘jaligida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 54,9 mlrd. so‘mni (116,3 foiz), baliqchilik xo‘jaliklarida 35,0 mlrd. so‘mni (112,1 foiz), ovchilik xo‘jaligida 0,4 mlrd.so‘mni (101,7 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaliklarida 42,8 mlrd.so‘mni (100,7 foiz) tashkil qildi.



**Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmatlar)
hajmining taqsimlanishi, foizda
(2023 yil yanvar-mart)**

	<i>Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlar hajmi</i>		<i>Aholi jon boshiga, (ming soʻm)</i>
	<i>mlrd. soʻm</i>	<i>oʻsish surʼati, foizda</i>	
Buxoro viloyati	3 766,5	103,1	1 870,9
Buxoro sh.	67,3	101,6	232,1
Kogon sh.	12,8	102,1	199,8
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	475,4	102,1	2 713,7
Vobkent	279,4	101,1	1 912,2
Jondor	470,2	104,2	2 576,1
Kogon	327,3	100,0	3 951,1
Olot	282,7	104,9	2 746,4
Peshkoʻ	252,9	103,5	1 959,2
Romitan	388,5	102,9	2 604,4
Shofirkon	384,8	103,4	2 085,3
Qorakoʻl	334,8	105,0	1 970,7
Qorovulbozor	129,2	108,4	6 604,8
Gʻijduvon	361,2	102,4	1 136,9

2023 yil yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o‘shish sur‘atlari




Xususan, yuqori o‘shish sur‘atlari Qorovulbozor (108,4 foiz), Qorako‘l (105,0 foiz), Olot (104,9 foiz) va Jondor (104,2 foiz) tumanlarida kuzatildi. Kogon (100,0 foiz) va Vobkent tumanida (101,1 foiz) esa aksincha past sur‘atlar kuzatildi.


Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2023 yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘shishi 2022 yil mos davriga nisbatan 102,9 foizni, shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari 89,1 foizni va chorvachilik mahsulotlari 104,0 foizni tashkil qildi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilikning ulushi, foizda




Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, foizda



2023 yil yanvar-mart oylarida 3 633,4 mlrd. soʻmga teng boʻlgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 261,3 mlrd. soʻmga teng qismi yoki 7,2 foizi dehqonchilik, 3 372,1 mlrd. soʻmga teng qismi yoki 92,8 foizi chorvachilik sohasiga toʻgʻri keladi.


2023 yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda Qorovulbozor, Romitan va Buxoro tumanlarida asosan dehqonchilik sohasining ancha rivojlanganligini koʻrsatdi. Ushbu tumanlarda jami qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hajmining 37,4-13,4 foizini dehqonchilik mahsulotlari tashkil etadi. Shuningdek, Vobkent, Peshkoʻ, Kogon, Olot tumanlarida asosan chorvachilik sohasining ancha rivojlanganligini kuzatish mumkin. Ushbu hududlarda jami qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hajmining 99,5-97,6 foizini chorvachilik mahsulotlari tashkil etadi.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining
xoʻjaliklar toifalari boʻyicha taqsimlanishi, foiz**



Xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlillar, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari umumiy hajmining 86,8 foizi dehqon va tomorqa xoʻjaliklariga, 8,8 foizi fermer xoʻjaliklariga, 4,4 foizi qishloq xoʻjaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarga toʻgʻri kelishini koʻrsatmoqda.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi hududlar kesimida, foizda**



Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.

2023 yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qorovulbozor (23,7 foizi), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Vobkent (97,4 foizi) tumanlari va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qorovulbozor (32,2 foizi) tumanida qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich esa Kogon (0,6 foizi), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Qorovulbozor (44,1 foizi) hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Vobkent (0,1 foizi) tumanlarida qayd etildi.

Dehqonchilik

2023 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarning hajmi 261,3 mlrd.so'mni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan 89,1 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 7,2 foizni tashkil kildi.




Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi, % hisobida



**2023 yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida asosiy
turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sabzavotlar (tonna)



Chorvachilik



2023 yil yanvar - mart oylarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3372,1 mlrd.so'mni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan 104,0 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 92,8 foizni tashkil etdi.


2023 yil yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 50 963 tonna go‘sh (2022 yil yanvar - martga nisbatan 4,3 foizga ko‘p), 203,6 ming tonna sut (3,5 foizga ko‘p), 84,4 mln.dona tuxum (8,5 foizga ko‘p), 125 tonna jun (8,7 foizga ko‘p), 159,8 ming dona qorako‘l teri (o‘tgan yilga nisbatan 9,4 foizga ko‘p) ishlab chiqarildi.

2023 yil yanvar-mart oylarida xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

	<i>Barcha toifadagi xo‘jaliklar</i>		<i>shu jumladan:</i>					
			<i>fermer xo‘jaliklari</i>		<i>dehqon va tomorqa xo‘jaliklari</i>		<i>qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>miq-dori</i>	<i>o‘sinh sur‘ati, foiz</i>	<i>miq-dori</i>	<i>o‘sinh sur‘ati, foiz</i>	<i>miq-dori</i>	<i>o‘sinh sur‘ati, foiz</i>	<i>miq-dori</i>	<i>o‘sinh sur‘ati, foiz</i>
Go‘sh tirik vaznda, <i>tonna</i>	50 963	104,3	2 755	155,3	46 455	102,3	1 753	104,2
Sut, <i>tonna</i>	203 581	103,5	13 975	110,2	188 139	102,4	1 467	3,9 m.
Tuxum, <i>ming dona</i>	84 430	108,5	16 722	113,0	39 042	100,5	28 666	118,8
Jun, <i>tonna</i>	125	108,7	18	150,0	105	102,9	2	2,0 m.
Qorako‘l teri dona	159 785	109,4	22 919	189,6	133 768	100,5	3 098	3,7 m.

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taxlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go‘shning umumiy hajmidan 91,2 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 92,4 foizi, tuxumning 46,2 foizi, junning 84,0 foizi, qorako‘l terining 83,7 foizi ham dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keladi.

**Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini
ishlab chiqarishda xo‘jalik toifalarining ulushi**




**2023 yil 1 aprel holatiga xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha
chorva mollari va parrandalar bosh soni**


	<i>Barcha toifadagi xo‘jaliklar</i>		<i>shu jumladan:</i>					
			<i>fermer xo‘jaliklari</i>		<i>dehqon va tomorqa xo‘jaliklari</i>		<i>Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>ming bosh</i>	<i>o‘sinh sur‘ati, foiz</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o‘sinh sur‘ati, foiz</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o‘sinh sur‘ati, foiz</i>	<i>ming bosh</i>	<i>o‘sinh sur‘ati, foiz</i>
Yirik shoxli qoramollar	1 312,1	102,5	94,5	100,1	1 201,3	102,4	16,3	126,4
shu jumladan sigirlar	425,4	103,8	31,3	116,8	389,5	102,5	4,6	153,3
Qo‘y va echkilar	2 339,1	103,1	332,8	99,0	1 842,5	101,5	163,8	139,0
Parrandalar	6 329,8	111,2	1 593,2	100,3	2 902,4	100,0	1 834,2	153,1

Ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik va baliqchilik mahsulotlarini hududlar kesimida taqsimlanishi


Go'sht (ming t.)




Sut (ming t.)



Tuxum (mln.dona)



Ovlangan baliq (tonna)



2023 yil 1 aprel holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, foiz</i>
Yirik shoxli qoramol	1 312,1	102,5
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	94,5	100,1
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 201,3	102,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	16,3	126,4
shundan sigirlar	425,4	103,8
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	31,3	116,8
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	389,5	102,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,6	153,3
Qo'y va echkilar	2 339,1	103,1
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	332,8	99,0
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 842,5	101,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	163,8	139,0
Otlar (bosh)	7 141	106,8
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari (bosh)	2 657	114,9
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari (bosh)	3 377	92,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar (bosh)	1 107	149,4
Parrandalar	6 329,8	111,2
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	1 593,2	100,3
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 902,4	100,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 834,2	153,1


**2023 yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik
mahsulotlari**

	<i>Miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, foiz</i>
Go'sht (tirik vaznda), ming tn.	51,0	104,3
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	2,8	155,3
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	46,4	102,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,8	104,2
Sut, ming tn.	203,6	103,5
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	14,0	110,2
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	188,1	102,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,5	3,9 m.
Tuxum, mln. dona	84,4	108,5
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	16,7	113,0
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	39,0	100,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	28,7	118,8

Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2023 yil 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 312,1 ming boshni, shu jumladan sigirlar 425,4 ming boshni, qo'y va echkilar 2 339,1 ming boshni, ot 7 141 boshni, parrandalar 6 329,8 ming boshni tashkil etdi. 2023 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 32,0 ming boshga (2,5 foizga), shu jumladan sigirlar 15,5 ming boshga (3,8 foizga), qo'y va echkilar 70,4 ming boshga (3,1 foizga), otlar 452 boshga (6,8 foizga), parrandalar 638,9 ming boshga (11,2 foizga) ko'paydi.

Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi, foizda



Fermer xo'jaliklari



Dehqon va tomorqa xo'jaliklari




Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


2023 yil 1 aprel holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollar 7,2 foizi fermer xo'jaliklariga, 91,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,2 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 14,2 foizi fermer xo'jaliklariga, 78,8 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 25,2 foizi fermer xo'jaliklariga, 45,8 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 29,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2023 yil 1 aprel holatiga shahar va tumanlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni


Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)




shu jumladan: sigirlar (ming bosh)



Qo‘ylar va echkilar (ming bosh)



Parrandalar (ming bosh)



Fermer xo‘jaliklari. 2023 yil yanvar-mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 320,2 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 8,8 foizni tashkil etdi.

2023 yil 1 aprel holatida fermer xo‘jaliklarida 94,5 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 31,3 ming bosh sigir, 332,8 ming bosh qo‘y va echkilar, 1 593,2 ming bosh parrandalar mavjud bo‘lib, 2023 yil 1 aprel holatiga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 0,1 foizga ko‘p, parrandalar 0,3 foizga ko‘paygan.

**2023 yil yanvar-mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan
asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari**

	2022 yil		2023 yil		o‘sinh sur‘ati, foiz
	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	
Go‘sh, tirik vaznda	1 774	3,6	2 755	5,4	155,3
Sut	12 681	6,4	13 975	6,9	110,2
Tuxum, ming dona	14 802	19,0	16 722	19,8	113,0
Jun	12	10,4	18	14,4	150,0
Qorako‘l teri, dona	12 085	8,3	22 919	14,4	189,6
Ovlangan baliq	94	7,4	206,8	13,8	2,2 m.
Sabzavot	1 195	13,1	1 230	17,2	102,9
Mevalar	10	90,9	-	-	-

2023 yil yanvar-mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan tirik vaznda 2 735 tonna go‘sh (2022 yil yanvar - martga nisbatan 55,3 foizga ko‘p), 14,0 ming tonna sut (10,2 foizga ko‘p), 16,7 mln.dona tuxum (13,0 foizga ko‘p), 18 tonna jun (50,0 foizga ko‘p), 22,9 ming dona qorako‘l teri (o‘tgan yilga nisbatan 89,6 foizga ko‘p) ishlab chiqarildi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko'p yillik yosh ko'chatlarni o'stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan yetishtirish qiymatlarining o'zgarishi yig'indisidir.

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o'stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirish qiymatlarini o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

Ovchilik - ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko'rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko'paytirish va davolash harajatlari hisobga olinadi.

O'rmon xo'jaligi – o'rmon va o'rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. O'rmon xo'jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o'rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong'inga qarshi dasturlarni ishlab chiqarish kiradi. O'rmon xo'jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag'ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko'chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o'suvchi qo'ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong'oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliq xo'jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohasining mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko'paytirish va yaxshilashni o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining yig'ilgan yalpi hosili qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, fermer va dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida asosiy va takroriy, bog'larning qator oralaridagi qishloq xo'jaligi ekinlaridan yig'ib olingan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi.

Fermer xo‘jaliklari - ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida ta‘qiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik sub’ektidir.

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari – oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan er uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a‘zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida erga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi sub’ekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni - xo‘jalik toifalari bo‘yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o‘z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo‘y va echkilar, cho‘chqalar va h.k.)

Go‘sht yetishtirish - so‘yish uchun sotilgan hamda o‘z xo‘jaligida so‘yilgan barcha turdagi qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o‘z ichiga oladi.

Sut yetishtirish - yosh mollarga ichirish uchun sog‘ib olingan sut va og‘iz sutini qo‘shgan holda, haqiqatda sog‘ib olingan sigir, echki, qo‘y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi yetishtirishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish - barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo‘ja olish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o‘z ichiga oladi.

Jun yetishtirish - xo‘jalikning ichki ehtiyojlariga sarflangani hamda junni saqlash va tashish jarayonida yo‘qotilganini qo‘shgan holda, qo‘y, echki, tuyalardan haqiqatda qirqib olingan natura vazndagi (qirqib olingandan keyingi vaznda) barcha junlarni o‘z ichiga oladi, bunga tullash juni, echki tiviti hamda takroriy qirqib olingan junlar ham qo‘shiladi.